

## Savollar:

1. Intellektual mulk markazining asosiy vazifalariga nimalar kiradi?
2. O'zganing tovar belgisidan yoki xizmat ko'rsatish belgisidan huquq egasining rozilgisiz foydalanish holati bo'yicha qanday jazo chorasi qo'llaniladi?
3. Tegishli patentlangan ixtironi, foydali modelni, sanoat namunasini o'z ichiga olgan mahsulot yoki buyumni ruxsatsiz tayyorlash, qo'llash, import qilish, sotishga taklif etish, sotish, fuqarolik muomalasiga boshqa yo'sinda kiritish yoki shu maqsadda saqlab turish, shuningdek ixtiro patenti bilan muhofaza qilinayotgan usulni qo'llash yoxud bevosita ixtiro patenti bilan muhofaza qilinayotgan usul bilan tayyorlangan mahsulotni fuqarolik muomalasiga kiritish yoki shu maqsadda saqlab turishga qonunchilikda qanday tartibda jazo chorasi qo'llaniladi?
4. Qanday murojaat anonim murojaat hisoblanadi?
5. Jismoniy va yuridik shahslarning murojaatlarini ko'rib chiqish muddati qanday?
6. Sanoat mulki ob'ektlariga patentlar qaysi tashkilot tomonidan beriladi?
7. Tovar belgisi nima?
8. Apellyatsiya kengashiga Intellektual mulk markazining tovar belgisi, tovar kelib chiqqan joy nomini ro'yxatdan o'tkazishga rad javobi yoki ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi qarori apellyatsiyaga topshirish muddatlari qanday?
9. Tovar belgisi ro'yxatga olinganligini qaysi hujjat tasdiqlaydi?
10. Qaysi hujjat bilan tovar belgilarini xalqaro ro'yxatdan o'tkazish amalga oshiriladi?
11. Tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish huquqini beruvchi guvohnoma egasi kim bo'lishi mumkin?
12. Tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish huquqini beruvchi guvohnomaning amal qilish muddati qanday?
13. Ogohlantiruvchi tamg'alash deganda nimani tushunasiz?
14. Ro'yxatga olingan tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish huquqini olish bo'yicha talabnoma bo'yicha Apellyatsiya kengashining qarori ustidan qaysi muddatlarda da'vo arizasi topshirilishi mumkin?
15. O'zbekiston Respublikasi tashqarisida yashovchi jismoniy shaxslar va xorijiy yuridik shaxslar talabnomalarni qanday topshiradi?

**16. Qanday intellektual mulk ob'ektlari huquqiy muhofaza hujjati va ilmiy daraja berish uchun asos bo'ladi?**

**17. Sanoat namunasining patentga layoqatlilik shartlarining asosiy mezonlari nimalardan iborat?**

**18. Sanoat mulki ob'ektlarini huquqiy muhofaza qilish qanday amalga oshiriladi?**

**19. Sanoat namunasiga olingan patentni patent egasining iltimosnomasiga ko'ra yana necha yilga uzaytirilishi mumkin deb o'ylaysiz.**

**20. Intellektual mulk markaziga patent berish haqidagi talabnoma topshirilgan sanadan e'tiboran hisoblaganda sanoat namunasi patenti necha yil mobaynida amal qiladi?**

**21. Foydali modelga berilgan patentning amal qilish muddatini ayting.**

**22. Sanoat mulki ob'ektiga bo'lgan huquq muallifga (hammualliflarga) yoki uning (ularning) huquqiy vorisiga (huquqiy vorislariga) tegishli bo'lishi qaysi hujjat bilan tasdiqlanadi?**

**23. Sanoat mulki ob'ektining patenti patent egasiga qanday huquqni beradi?**

**24. Intellektual mulk markaziga patent berish haqidagi talabnoma topshirilgan sanadan e'tiboran hisoblanganda ixtiro patenti, sanoat namunasi patenti hamda foydali model patenti amal qilish muddatlarini ayting.**

**25. Intellektual mulk markazi faoliyatining huquqiy asosi.**

**26. Muallifning shaxsiy nomulkiy huquqlariga nimalar kiradi?**

**27. Intellektual faoliyat natijalari deganda nimani tushunasiz?**

**28. Muallifning mulkiy huquqlariga nimalar kiradi?**

**29. Mualliflik huquqining amal qilish muddatini ayting**

**30. Asarning ijtimoiy mulkka aylanishi deganda nimani tushunasiz?**

**31. Qanday mahsulotlar kontrafakt hisoblanadi?**

**32. Tovar belgisi huquqiy jihatdan qanday muhofaza qilinadi?**

**33. Tovar belgisidan foydalanish huquqi qanday tartibda boshqa shaxsga o'tkaziladi?**

**34. Kontrafakt terminiga O'zbekiston Respublikasining qaysi normativ huquqiy hujjatlarida ta'rif berilgan.**

**35. Kontrafakt va soxtalashtirish atamalari o'rtasidagi farqlar nimadan iborat.**

**36. Qalbakilashtirish termini O'zbekiston Respublikasining qaysi qonuning xujjatida qo'rsatilgan.**

**37. Intellektual mulk ob'ektlari bu...**

**38. Tovar belgisiga nisbatan hukukbuzarlik sodir etilganda qo'llaniladigan jazo choralari.**

**39. Intellektual mulk ob'ektlariga nisbatan mutlaq huquqning amal qilish muddatini ayting.**

**40. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 177<sup>1</sup>-moddasida belgilangan javobgarlik qaysi intellektual mulk huquqini buzilishiga nisbatan qo'llaniladi.**

**41. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 177<sup>1</sup>-moddasida ko'rsatib o'tilgan Mualliflik huquqini va turdosh huquqlarni buzishiga nisbatan ko'llaniladigan jazo choralari ayting.**

**42. Asarlardan yoki turdosh huquqlar ob'ektlaridan qonunga xilof ravishda foydalanish, xuddi shuningdek asarlarning yoki turdosh huquqlar ob'ektlarining kontrafakt nusxalarini takrorlash, tarqatish, barchaning e'tiboriga yetkazish yoxud asarlarning yoki turdosh huquqlar ob'ektlarining nusxalarida ularning tayyorlovchilari haqida, ularni ishlab chiqarish joylari to'g'risida, shuningdek mualliflik huquqining va turdosh huquqlarning egalari haqida yolg'on axborotni ko'rsatish, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining qaysi moddasida ko'rsatilgan?**

**43. Mualliflik huquqi ob'ektiga izoh bering.**

**44. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 177<sup>2</sup>-moddasida ko'rsatilgan ob'ektlar ya'ni ixtiro, foydali model va sanoat namunasiga bo'lgan huquqlarni buzishiga nimalar qiradi?**

**45. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 177<sup>2</sup>-moddasida ko'rsatib o'tilgan ixtiroga, foydali modelga va sanoat namunasiga bo'lgan huquqlarni buzishiga nisbatan qo'llaniladigan jazo choralari.**

**46. Hammualliflik deganda nima tushunasiz?**

**47. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksidagi 1050-moddada ko'rsatib o'tilgan Mualliflik huquqining himoya belgilariga tushuncha bering.**

**48. Murojaatlarning shakllari va turlari haqida tushuncha bering.**

**49. Turdosh huquqlar ob'ektlariga izoh bering.**

**50. O'zbekiston Respublikasining "Firma nomlari to'g'risida"gi Qonunning asosiy maqsadi bu....**